

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GAZ PAYVANDLASH JIHOZLARINI NAZORATDAN O'TKAZISH

Qayumov Botirjon

Kosonsoy tuman 1-son kasb-hunar maktabi
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Aannotatsiya:

ushbu maqolada gaz payvandlash jihozlarini nazoratdan o'tkazish tartibi, qoidalari va ahamiyati xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: gaz, jihozlar, gaz tarmoqlari, bosim, norma, texnik qoidalar.

Аннотация: В данной статье приведены пункты о порядке, правилах и значимости проведения контрольных испытаний газосварочного оборудования.

Ключевые слова: газ, оборудование, газовые сети, давление, норма, технические правила.

Aannotation: this article provides opinions on the procedure, rules and significance of the transfer of gas welding equipment from control.

Keywords: gas, equipment, Gas Networks, pressure, norm, technical regulations.

KIRISH

Iste'molchilarning gaz jihozlaridan oqilona va xavfsiz foydalanishi baxtsiz hodisalarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Boisi, andakkina e'tiborsizlik ham noxush holatlarga sabab bo'lishi, turli dilxiralikni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi iste'molchilar gaz jihozlarida nosozlik kuzatilgach, gaz ta'minoti xodimlari xonadoniga tez yetib kelib, xizmat ko'rsatmaganidan norozi bo'lib, murojaat etadi, Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 2-ilovasida "Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari" belgilab qo'yilgan. Unda gazdan foydalanish uskunalari iste'molchilarning yozma yoki elektron buyurtmalari asosida gaz ta'minoti tashkiloti tomonidan tasdiqlangan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tariflar bo'yicha ta'mirlash muddatlari bayon qilingan bo'lib, xizmat ko'rsatish muddati holatning xavflilik darajasiga qarab belgilanadi.

Gaz tarmoqlarini loyihalash "Gaz ta'minoti. Loyiha normalari" shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan amalga oshiriladi. Gaz ta'minoti tarmoqlarini qurilishida, ishchi loyihalar talablariga, mazkur me'yorlar hamda qoidalardan tashqari, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya qilish lozim. Vaqtinchalik gaz quvurlari va gaz jihozlari loyihaga asosan bajarilib, me'yorlarva qoidalarga muvofiq montaj qilinishi hamda sinovdan o'tkazilishi lozim. Loyihaga ko'ra foydalaniladigan quvurlarga, berkituvchi qurilmalarga, payvandlash va himoyalash ashyolari bo'lishi lozim. Jihozlarga, diametri 100 mm dan ortiq berkituvchi qurilmalarga, uzellarga, biriktiruvchi detallar va himoyalovchi flanelarga tayyorlovchi qurilish-montajtashkilotlariga qarashli zavodlarning, markaziy tayyorlov ustaxonalarining yoki markaziy tayyorlov zavodlarining texnik pasport (dalolatnoma) bo'lishi lozim. Markaziy tayyorlov ustaxonalari yoki markaziy tayyorlov zavodlari sharoitlarida tayyorlangan himoya qoplamlariga texnik pasport (dalolatnoma) tuzilishi vlozim, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- himoya ishlari bajarilgan sana;
- himoya qoplamalari turi;
- uning sifatini nazorat qilish natijalari.

Gaz ta'minoti tarmoqlarini qurishda yer qazish ishlari va asoslari qurish bo'yicha ishlar loyihaga va "yer inshootlari. Zamin va poydevorlar" qurilish reglamenti talablariga muvofiq bajarilishi kerak. Qurilishi tugallangan yer osti va yer usti gaz quvurlari, uy ichidagi va tsex ichidagi gaz jixozlari, gazni tartibga solish punkiti va gazni tartibga solish qurilmasi, shuningdek suyultirilgan uglevodorod gazining rezervuar qurilmalariga qurilish pasportlari tuzilishi kerak. Uzunligi 100 m dan ortiq yer osti gaz quvurlari va suyultirilgan uglevodorod gazi rezervuari qurilishida ishlarni hisobga olib borish jurnallari tuzilishi kerak.

ASOSIY QISM

Yomg'ir, qor yog'ib turganida, tuman tushganida va tezligi 10 m/s dan ortiq shamol esib turganida ochiq havoda payvandlash, faqat payvandlash joyi namlik va shamoldan himoyalash ta'minlangan hollardagina olib borish mumkin. Gaz ta'minoti tizimlarini qurish va o'rnatishga oid shaharsozlik normalari va qoidalari, shuningdek, amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlarga mos bo'lishi lozim. Gaz xo'jaligi tizimlarini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservasiya qilish, tugatish va foydalanish



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonunining 8-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Gaz ta‘minoti tizimlarini qurishda payvandlash, izolyasiyalash va boshqa qurilish-montaj ishlari shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Elektr va gaz yordamida payvandlash ishlari mazkur reglamentning talablariga muvofiq bajarilishi kerak. Gaz xo‘jaligi tizimlarining qurilish-montaj ishlari loyihaga asosan amalga oshirilishi lozim. Shahar va shaharchalardagi gazni tartibga solish punkti jihozlarini sozlash parametrlari gaz ta‘minoti tashkilotining rahbari tomonidan belgilanadi. Bunda maishiy iste‘molchilar uchun: tartibga solishdan keyingi eng yuqori ishchi bosim 0,003 MPadan oshmasligi; saqlash-chiqarish klapanlari (jumladan bosim tartiblagichlariga o‘rnatilganlari ham) tartiblagichdan keyingi bosim maksimal ishchi bosimdan 15 % dan ko‘p bo‘lmagan qiymatga oshsa, gazni chiqarib yuborishni ta‘minlashi; saqlash-berkitish klapanlari ishlab ketishining yuqori bosim chegarasi maksimal ishchi bosimdan 25 % dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Saqlash klapanlari ishidagi kamchiliklar, shuningdek, gaz sizib chiqishi avariya tartibida bartaraf etiladi. Suyultirilgan gaz to‘ldirilgan ballonlarni saqlash omborlarida quyidagi yong‘inni o‘chirish birlamchi vositalari bo‘lishi kerak:

a) xona ichida (har 50 kvadrat metrga):

5 litr hajmdagi kukunli o‘t o‘chirgichlar — 2 ta;

0,5 kub metr hajmli qum solingan quti — 1 ta;

belkurak — 1 ta;

2×2 metrli kigiz yoki asbest mato — 1 ta;

b) ombor hududi to‘siqlari chegaralarida (yong‘inga qarshi punkt — shitda):

5 litr hajmdagi kukunli o‘t o‘chirgichlar — 2 ta;

temir ilgak — 2 ta;

lom — 1 ta;

qizil rangga bo‘yalgan chelak — 2 ta;

yong‘in boltasi — 1 ta;

sig‘imi 200 litr bo‘lgan suv to‘ldirilgan bochka — 2 ta.

5 litr hajmdagi kukunli o‘t o‘chirgichlar bo‘lmagan holatlarda ularni uglekislotali o‘t o‘chirgichlarga almashtirish mumkin.

Gaz payvandlash ishlarini olib borish uchun ko‘chma asetilen generatorlarini ochiq maydonlarda o‘rnatish lozim. Ularni faqat havo almashish imkoniga ega joylarda vaqtinchalik ishlatish mumkin. Asetilen generatorlarini payvandlash ishlari olib boriladigan joydan, ochiq alanga va qizib ketgan buyumlardan, kompressor va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ventilyatorlar havo tortadigan joylardan kamida 10 m bo'lgan masofada to'sib qo'yilgan holda joylashtirish lozim. Asetilen generatori o'rnatilganda "Begonalarga kirish taqiqlanadi", "Yong'in xavfi mavjud", "Chekilmasin", "Olov bilan yaqinlashmang" kabi eslatmalar ilinadi. Payvandlash uskunalari yordami gaz tarmoqlarini ta'mirlashga faqat gaz xo'jaligida xavfsizlik qoidalariga muvofiq binolar va tashqi qurilmalar hududida joylashgan ishlatiladigan tabiiy gaz quvurlari uchun ruxsat etiladi. Avariya yuz bergan joyda gazlanishni nazorat qilish gaz analizatorlari yordamida amalga oshirilishi kerak. Gaz quvurlaridan gaz chiqishi joylari sovun emulsiyasi yordamida aniqlanadi. Ushbu maqsadlar uchun ochiq olov manbalaridan foydalanish, shuningdek, bir vaqtning o'zida gaz tamoqlarining deformasiyalangan joyida payvandlash, izolyasiyalash va transheyani tozalash taqiqlanadi. Ishlar tugagandan so'ng ko'chma generatordagi kalsiy karbidi oxirigacha ishlatilishi lozim. Generatorlardan chiqarib tashlanadigan ohakli loy buning uchun moslashtirilgan idishga to'kilishi va maxsus bunkerga yoki loyli chuqurga tashlanishi talab etiladi. Ochiq loyli chuqurlar panjaralar bilan to'sib qo'yilishi, yopiqdari esa yonmaydigan tom bostirmasiga ega bo'lishi hamda oqimli shamollatish va loyni chiqarib tashlash uchun tegishli tuynuklar bilan jihozlanishi zarur. Ohakli loy saqlanadigan joylardan kamida 10 m radiusdagi masofada ochiq alanga manbalaridan foydalanish taqiqlanadi va bu haqida tegishli ogohlantiruvchi belgilar ilib qo'yilishi lozim. Gaz ballonlarni saqlash va tashish faqat ularning bo'yinlariga xavfsizlik qolpoqlari o'rnatilgan holda amalga oshiriladi. Ballonlarni tashishda silkinishlar va zarbalarga ruxsat etilmaydi. Ballonlar payvandlash joyiga maxsus aravalarda va zambillarda etkazib beriladi. Ballonlarni elkalarda va qo'llarda tashish taqiqlanadi. Gaz solingan ballonlarni saqlash, tashish va ulardan foydalanishda ular quyosh nurlari va boshqa issiqlik manbalari ta'siridan himoyalangan bo'lishi lozim. Xonalarda o'rnatiladigan gaz ballonlari isitish radiatorlari va boshqa isitish asbob-uskunalardan kamida 1 m masofada, ochiq olovli issiqlik manbalaridan esa — kamida 5 m masofada bo'lishi lozim.

Aylanma rampa (guruhli) qurilmalardan gorelkalargacha bo'lgan masofa (gorizontal bo'yicha) 10 m va yonuvchan gazlar va kislorodli ballonlardan kamida 5 m dan kam bo'lgan masofada saqlanish kerak. Bir xonada kislorod va gaz bilan to'ldirilgan ballonlarni hamda kalsiy karbidini, bo'yoqlar, moylar va yog'larni saqlash taqiqlanadi. Payvandlash ustaxonasida 10 tadan kam payvandlash postlari bo'lganda har bir post uchun bittadan kislorod yoki gaz to'ldirilgan zaxira ballonlar saqlanishi mumkin. Zaxira ballonlar maxsus po'lat shitlar bilan to'sib qo'yilishi yoki



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

payvandlash ustaxonasiga qo‘shimcha qurilgan maxsus yordamchi joylarda saqlanishi lozim. Payvandlash ustaxonasida 10 tadan ortiq payvandlash postlari bo‘lganda markazlashtirilgan gaz ta‘minoti bo‘lishi zarur. Kislorod va yonuvchi gazlar bilan to‘ldirilgan hamda ulardan bo‘shagan ballonlarga bir xil xavfsizlik choralari ko‘rilishi kerak. Kalsiy karbidi solingan barabanlarni saqlash va ochish joylarida chekish, ochiq alangadan foydalanish va zarbada uchqun hosil qilishi mumkin bo‘lgan asboblardan foydalanish taqiqlanadi. Kalsiy karbidi solingan barabanlarni jezli zubilo va bolg‘a yordamida ochish lozim. Kavsharlangan barabanlar maxsus pichoq bilan ochiladi. Baraban qopqog‘idagi kesib ochiladigan joyga dastlab solidolning qalin qatlami surtiladi. Ochilgan kalsiy karbidli barabanlarning suv o‘tkazmaydigan va barabanni zich qoplab oladigan, chetlari bukilgan qopqoqlar bilan himoyasi ta‘minlanishi hamda qopqoq bortining balandligi kamida 50 mm ga teng bo‘lishi lozim.

XULOSA

Tabiiy gaz xususiy uylarni isitish uchun eng tejamkor xomashyo hisoblanadi. Hozir ko‘plab shahar va qishloqlarda “ko‘k yoqilg‘i” yetkazib beruvchi avtomobil yo‘llari yotqizilgan. Lekin ular bilan bog‘lanish, albatta, muayyan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Gazlashtirish jarayoni ko‘pincha uzoq va, albatta, qimmat protsedura hisoblanadi. Biroq, xususiy uyning magistraliga ulanish narxi keyinchalik tezda o‘zini oqlaydi. Shahar atrofidagi turar-joy binolarini gazlashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- uy egasi ta‘minot turini tanlaydi;
- gaz xizmatida spetsifikatsiya loyihasi tuzilmoqda;
- truba asosiy magistraldan uygacha cho‘zilgan;
- uyda gazlashtirish loyihasi ishlab chiqilmoqda;
- montaj va qurilish ishlari olib borilmoqda;
- barcha shartlar bajarilishi va haqiqiy ulanish tekshirilmoqda.

Mamlakat xususiy uylari ko‘p hollarda juda kichik maydonga ega. Shuning uchun, gaz ta‘minoti turiga ko‘ra, ular odatda birinchi guruhga kiradi. Maydoni 250 m² dan kam bo‘lgan turar-joy binolarida gaz iste‘moli ko‘pincha soatiga 5 m³ dan oshmaydi. Maydoni 250-300 m² dan ortiq bo‘lgan xususiy kottejlar uchun 2 birinchi bosqichda maksimal soatlik gaz sarfini hisoblashingiz kerak bo‘ladi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Adabiyotlar

1. QR 05.02-23 “Gaz ta’minoti tizimlari va tarmoqlari” qurilish reglamentini tasdiqlash to’g’risida.
2. Titov O.I. “Qo’lda payvandlash elektr payvandchisining malumotnomasi-2000 yil.
3. N.K.Dadaxonov “Gaz payvandlash texnologiyasi” Toshkent “O’qituvchi”-2002 yil.
4. N.Bekmuratova “Payvandlash ishlab chiqarish” Toshkent “Mexnat”-2002 yil.
5. B.A.Maripboboev “Materialshunoslik” Toshkent Ilm-ziyo-2006yil.

Internet saytlari:

1. www.aim.uz
2. www.refarat.uz
3. www.soft.uz



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

